



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 11 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 11

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№11 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-11>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Азизов Абборжон Салиджанович</b> НАЛОГОВЫЙ МОНИТОРИНГ КАК АЛЬТЕРНАТИВНАЯ ФОРМА НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ И ОТЛИЧИЯ ОТ НАЛОГОВЫХ ПРОВЕРОК.....	5
<b>2. Norboyev Bobur Aliqul o‘g‘li</b> O‘ZBEKISTONDA YER KADASTRING HUDUDIY RIVOJLANISH TARIXI.....	13
<b>3. Каримов Темур Мамарахим ўғли</b> ЮРИДИК ИХТИСОСЛИК БЎЙИЧА ИШ СТАЖИНИНГ СУДЬЯЛИК ЛАВОЗИМИГА НОМЗОДЛАРГА ҚЎЙИЛГАН ТАЛАБЛАРДАН БИРИ СИФАТИДА.....	22
<b>4. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich</b> HUQUQNI MUXOFAZA QILUVCHI ORGANLARIDA KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH DASTURINI ISHLAB CHIQUISH VA UNI TASHKIL ETISH TARTIBI.....	30
<b>5. Nurumov Dilshodbek Djumabayevich</b> ADVOKATNING ISHONCH BILDIRUVCHI SHAXS (HIMOYA OSTIDAGI SHAXS) BILAN MUNOSABATLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	40
<b>6. Сафаев Мансурбек Илхомжонович</b> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ БЎЙИЧА ХУҚУҚИЙ АСОСЛАР.....	48
<b>7. Зокиров Шерзод Илхом ўғли</b> ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИДА МУРОЖААТЛАР БИЛАН ИШЛАШ ТАЖРИБАСИ ВА УНИ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИККА ИМПЛЕМЕНТАЦИЯ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ.....	57
<b>8. Xudaykulov Feruzbek Xurramovich</b> JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISH ALGORITMI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	65
<b>9. Мухитдинов Фахритдин Мухитдинович</b> МАКТАБ ЎҚУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ЖИНОЯТЧИЛИКНИНГ ПРЕВЕНТИВ ЖИХАТЛАРИ.....	76
<b>10. Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA OILAGA VA YOSHLARGA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING IJTIMOIY XAVFLILIGI.....	90
<b>11. Файзуллаев Шавкат Файзуллаевич</b> ИШНИ СУДГА ҚАДАР ЮРИТИШДА ВИДЕОКОНФЕРЕНЦАЛОҚА РЕЖИМИНИ ҚЎЛЛАШ.....	99
<b>12. Nuratdinov Srajatdin Kamalatdinovich</b> XORIY DAVLATLARINING OMMAVIY TARTIBSIZLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA TAJRIBASI.....	109



**Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich,**  
 Qoraqalpoq davlat universiteti Jinoyat huquqi, protsessi  
 va kriminalistika kafedrası mudiri,  
 Yuridika fanlar doktori, dosent  
 E-mail: mirlaw83@mail.ru

**О‘ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI JINOYAT QONUNCHILIGIDA OILAGA VA  
 YOSHLARGA QARSHI JINOYATLAR TUSHUNCHASI VA ULARNING IJTIMOIIY  
 XAVFLILIGI**

**For citation:** Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich. THE CONCEPT OF CRIMES AGAINST THE FAMILY AND YOUTH IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR SOCIAL DANGER. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17637245>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan oila va yoshlarga qarshi jinoyatlar tushunchasi, ularning huquqiy asoslari hamda ijtimoiy ahamiyati atroflicha tahlil etilgan. Muallif tomonidan “oila” va “yoshlar” tushunchalarining mazmuni milliy qonunchilik hujjatlari, jumladan, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlar hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalari asosida yoritilgan. Maqolada voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatining huquqiy asoslari, shuningdek, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, voyaga yetmaganlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish maqsadida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish zarurligi taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** oila, yoshlar, ijtimoiy xavfli qilmish, jinoiy qilmish, kvalifikatsiya, fohishallikka jalb etish, uyushgan guruh, jinoiy uyushma, giyohvandlik vositalari, jazoni individuallashtirish

**Нажимов Миратдиин Шамшетдинович,**  
 Заведующий кафедрой уголовного права, процесса и криминалистики  
 Каракалпакского государственного университета, процесс и криминалистика”,  
 Доктор юридических наук, доцент  
 E-mail: mirlaw83@mail.ru

**ПОНЯТИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ ПРОТИВ СЕМЬИ И МОЛОДЕЖИ В УГОЛОВНОМ  
 ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ИХ СОЦИАЛЬНАЯ  
 ОПАСНОСТЬ**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье подробно анализируется понятие преступлений против семьи и молодежи с точки зрения уголовного права, их правовые основы и социальная значимость. Автором

освещено содержание понятий "семья" и "молодежь" на основе норм национального законодательства, в том числе законов "О гарантиях прав ребенка," "О государственной молодежной политике," "Об образовании" и Конституции Республики Узбекистан. В статье анализируются правовые основы государственной политики по защите прав и законных интересов несовершеннолетних, а также комплексные меры, направленные на их поддержку. Также в целях усиления правовой защиты несовершеннолетних предложено внести изменения и дополнения в Кодекс об административной ответственности и другие нормативно-правовые акты.

**Ключевые слова:** семья, молодежь, общественно опасное деяние, преступное деяние, квалификация, вовлечение в проституцию, организованная группа, преступное сообщество, наркотические средства, индивидуализация наказания

**Najimov Miratdiyin Shamshetdinovich,**  
Head of the Department of Criminal Law, Process  
and Forensics at Karakalpak State University,  
Doctor of Law, Associate Professor.  
E-mail: mirlaw83@mail.ru

## THE CONCEPT OF CRIMES AGAINST THE FAMILY AND YOUTH IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEIR SOCIAL DANGER

### ANNOTATION

This article comprehensively analyzes the concept of crimes against family and youth from the perspective of criminal law, their legal basis, and social significance. The content of the concepts "family" and "youth" is highlighted by the author on the basis of national legislative acts, including the laws "On Guarantees of the Rights of the Child", "On State Youth Policy", "On Education", as well as the norms of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The article analyzes the legal basis of state policy on the protection of the rights and legitimate interests of minors, as well as a set of measures aimed at their support. Also, in order to strengthen the legal protection of minors, it is proposed to make amendments and additions to the Code of Administrative Responsibility and other regulatory legal acts.

**Keywords:** family, youth, socially dangerous act, criminal act, qualification, involvement in prostitution, organized group, criminal community, narcotic drugs, individualization of punishment.

Jinoyat huquqida oila deganda, nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki bolalarni tarbiyalash uchun asrab olishning boshqa shakllaridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar doirasi tushunilishi kerak. Oila manfaatlarini oilaning ijtimoiy institut sifatidagi funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ehtiyojlari sifatida aniqlash mumkin[1, 157].

"Yoshlar" tushunchasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, milliy qonunchilikda ushbu atama bilan bog'liq qator tushunchalar qo'llaniladi: "yoshlar", "voyaga yetmaganlar", "bolalar" va hokazo. Jumladan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida 18 yoshga, ya'ni voyaga yetgunga qadar bo'lgan shaxs bola deb e'tirof etilgan[2]. Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga ko'ra, fuqaroning o'z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo'lish va ularni amalga oshirish, o'zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya'ni 18 yoshga to'lgach to'la hajmda vujudga keladi. Ya'ni, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar voyaga yetmaganlar deb ham yuritiladi. Shuningdek, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasiga muvofiq, 14 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar yoshlar (yosh fuqarolar) hisoblanadi[3]. Demak, ko'rishimiz mumkinki, ushbu tushunchalarga doir masalalar qonunchilikda tartibga solingan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 77-moddasida ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim

olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majbur ekanliklari to‘g‘risidagi konstitutsiyaviy norma mustahkamlangan.

Yoshlar va voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishning bugungi kundagi eng dolzarb masalalaridan biri ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga yangicha yondashuv, bu boradagi eskicha qarash va qoliplardan voz kechish hisoblanadi. Shu o‘rinda, mazkur jarayonda voyaga yetmagan shaxsning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, uning atrofidagi muhitni sog‘lomlashtirish, uning tarbiya va ta‘lim olishiga yetarli sharoit yaratish birlamchi ahamiyat kasb etadi.

Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan bugungi kungacha o‘tkazilgan “Mehr – 1, 2, 3, 4, 5” operatsiyalari doirasida Suriya, Iroq va Afg‘onistonda og‘ir ahvolga tushib, chorasiz qolgan 531 nafar ayollar va bolalar O‘zbekistonga olib kelinganligi, ularga zarur tibbiy va moddiy yordam ko‘rsatilganligi[4] fikrimizni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi misolida olib qaraganda voyaga yetmaganlar umumiy aholining qariyb 1/3 qismi (12157063 nafar)ni[5] voyaga yetmaganlar tashkil etishini hisobga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda voyaga yetmaganlarga oid qonunchilikni takomillashtirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning fuqarolik, ijtimoiy-iqtisodiy hamda mulkiy huquqlarini ta‘minlash borasidagi muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish naqadar dolzarb vazifa ekanligi ayon bo‘ladi.

Xuddi shuningdek, yurtimizda yosh avlodni sog‘lom va barkamol qilib tarbiyalash, ularning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur sohada amalga oshiriladigan ishlarining huquqiy asosi sifatida o‘tgan yillar davomida “Ta‘lim to‘g‘risida”gi[6], “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi[7], “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi[8], “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi[9], “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi[10], “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi[11] qonunlarning qabul qilinganligini keltirish mumkin. Qayd etish lozimki, voyaga yetmaganlarning huquqlari va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ishlar izchillik bilan davom ettirilmoqda. Jumladan, yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham voyaga yetmagan ta‘lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari bolaning o‘qishi, tarbiyalanishi, jismoniy, ma‘naviy va intellektual rivojlanishi uchun mas‘ulligi qonun darajasida mustahkamlandi[12].

Biroq globalizasiya sharoitida voyaga yetmaganlarning huquqlarini muhofaza qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan huquqiy bazani yanada takomillashtirish, yildan yilga xalqaro hamjamiyatga tobora ko‘proq integrasiya qilish voyaga yetmaganlar sohasidagi xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementasiya qilish masalalarini tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmonida ichki ishlar organlarida voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘limi boshlig‘i lavozimini joriy etish, shuningdek hududlarda yoshlar va voyaga yetmaganlarning manfaatlarini ta‘minlash maqsadida yetuk va mas‘ul mutaxassislar tomonidan mahallalarda sayyor qabullar tashkil qilib, zarur huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatish orqali voyaga yetmaganlarning huquqlarini amalga oshirilishi belgilangan edi[13].

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning odil sudlovga bo‘lgan huquqlarining to‘liq ta‘minlanmasligi, ularning jazoni ijro etish muassasalaridagi huquqiy holatini takomillashtirishga oid masalalarning yetarlicha tadqiq etilmaganligi, joriy qonunchilikni qo‘llash jarayonida vujudga keladigan kollizion holatlarda voyaga yetmaganlar huquqlarining to‘laqonli ta‘minlanmasligi, shuningdek voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlarining amalda ta‘minlanishini kafolatlovchi mexanizmlarning hozirgi kunda yetarlicha ishlayotganligi, o‘rganilayotgan muammolar yillar davomida o‘z ahamiyatini saqlab kelayotganligi voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini jinoyat-huquqiy vositalar bilan muhofaza qilish masalalarini tadqiq etishning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda barkamol avlodni huquqiy muhofaza qilish, siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishni yanada yaxshilash yuzasidan respublikamizda 20 dan ortiq qonun, 30 ga yaqin Prezident Farmoni va qarorlari, 50 ga yaqin Vazirlar Mahkamasi qarorlari va 200 dan ortiq sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar – jami 300 ga yaqin voyaga yetmaganlarga oid qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Shuningdek, bolalar va yoshlar huquqlariga oid 10 ga yaqin xalqaro shartnomalar ratifikasiya qilingan.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida[14] belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta‘lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovasion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta‘lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa, 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham “... yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, jumladan ularning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta‘sir va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat‘iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash[15] ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettirilishi belgilandi.

Aytish kerakki, voyaga yetmaganlarning ta‘lim olishidan ko‘zlangan maqsadga erishishda qonun chiqaruvchi O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 47-moddasida davlat ma‘muriy majburlov chorasini qo‘llash bilan tahdid qiladi. Ya‘ni unda ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaganlik, buning oqibatida voyaga yetmagan bolalarning ma‘muriy huquqbuzarlik sodir etishi, shuningdek, bolalarning majburiy umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi olishiga ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan to‘sqinlik qilganligi uchun ma‘muriy javobgarlik belgilash bilan mustahkamlagan[16].

Alohida qayd etish kerakki, yuqorida keltirilganlardan tashqari voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishi ta‘minlash maqsadida ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaslik (47<sup>1</sup>-modda), ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda qonun hujjatlari talablarini buzganlik (47<sup>2</sup>-modda), nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan haqiqatda nikoh munosabatlariga kirishganlik (47<sup>3</sup>-modda), voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlaganlik (47<sup>4</sup>-modda), vasiylikka olinganning zarariga g‘arazli maqsadlarni ko‘zlab vasiylikdan yoki homiylikdan foydalanish yoki uni nazoratsiz va zarur moddiy yordamsiz qoldirganlik (48-modda) uchun ma‘muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Ularning aksariyati bir yil ichida takroran sodir etilganda jinoiy javobgarlik keltirib chiqaruvchi huquqbuzarliklar bo‘lib, qonun chiqaruvchi mazkur vosita bilan voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlariga xilof huquqbuzarliklarga qarshi kurashadi.

Huquq sohasida ko‘zga ko‘ringan olimlardan biri G.Yuldasheva mustaqillik yillari davomida O‘zbekistonda voyaga yetmaganlarning manfaatlarini himoya qilishning quyidagi asosiy prinsiplari shakllanganligini ko‘rsatadi:

Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan bolalarga nisbatan diskriminasiyaga yo‘l qo‘ymaslik, voyaga yetmaganlarning asosiy huquq va manfaatlarini kafolatlarini ta‘minlash, ularning huquqlarini tiklash;

Konstitutsiya va qonunlarning ustunligini e‘tirof etgan holda voyaga yetmaganlarning huquqlarini kafolatlovchi qonun normalarni takomillashtirib borish;

voyaga yetmaganlarning jismoniy, ma‘naviy, diniy va aqliy kamol topishini ta‘minlash;

voyaga yetmaganlarni huquq va manfaatlarini kafolatini ta‘minlash maqsadida ular yashayotgan oilalarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash;

voyaga yetmaganlar manfaatlarini buzilishiga, cheklanishiga sabab bo‘lgan mansabdor shaxslarning javobgarligini belgilash;

voyaga yetmaganlarni huquqlari va konuniy manfaatlarini himoya qiluvchi mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab quvvatlash[17, B.28].

Yuqorida tahlil qilingan voyaga yetmaganlarga oid qonun hujjatlarida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini to'laqonli ta'minlash, jumladan, voyaga yetmaganlarning yashash, individuallikni saqlab qolish, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik, sog'liqni saqlash, bilim olish, himoya, g'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalaniish, axborot olish, fikrlash, so'z, vijdon va e'tiqod erkinligi, xususiy mulk va turar joy, mehnat qilish, dam olish va shu kabi boshqa huquqlari kafolatlari mustahkamlangan.

Bizningcha, mazkur qonun hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining MJtKga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash zarurki, oilaga va yoshlarga qarshi jinoyatlar tushunchasi yuzasidan olimlar turlicha qarashlarni bildirishgan. Ayrim tadqiqotchilar oila va yoshlarga qarshi jinoyatlarni umumiy jihatdan oila va yoshlar manfaatlariga qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanadi talqinida qisqa shaklda tushuncha berishadi[18, 100]. Ammo, biz ushbu tushunchaning mazmunini to'g'ri tushunish uchun uning tushunchasini to'liq ochib berilishi tarafdorimiz.

Bu borada tadqiqotchi Z.S.Ibrohimova oilaga qarshi jinoyat deganda, JK V bobining 122-126-moddalarida nazarda tutilgan, oila manfaatlariga hamda voyaga yetmaganlar sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, axloqiy, intellektual rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan qasddan sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmish (harakatlar yoki harakatsizlik) tushunilishini qayd etgan[19, B.30]. Bizningcha, ushbu ta'rifda oilaga qarshi jinoyatlar tizimiga yoshlarga qarshi jinoyatlar ham qo'shib yuborilgan. Biz ushbu tushunchaga ta'rif berayotganda, aynan oilaga qarshi va yoshlarga qarshi jinoyatlar xususiyatlariga alohida e'tibor qaratishni ham ularni muvofiqlashtirgan holda ta'rif berish zarur deb hisoblaymiz.

K.A.Ratnikov fikriga ko'ra, oilaga qarshi jinoyat deganda, ijtimoiy xavfli, aybli, qonunga xilof qilmish tushunilib, uning obyektini, birinchi navbatda, oilaning ijtimoiy hujayra va institut sifatida to'g'ri faoliyat ko'rsatishi kabi jihatlar hisoblanadi. Ushbu jihatlar voyaga yetmaganlarga qarshi qaratilgan ayrim harakatlarni ham qamrab olishi mumkinligiga alohida e'tibor qaratish zarur[20, B.310].

Shuningdek, A.A.Otajonov oiladagi normal turmush tarzini, yoshlarning to'g'ri tarbiyalanishini va normal rivojlanishini hamda ijtimoiy axloq normalarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar hisoblanishini e'tirof etgan[21, B.123].

Shuningdek, olimlardan A.I.Saregorodseva va M.S.Sirik oila va voyaga yetmaganlarga qarshi noqonuniy xatti-harakatlar deganda, shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlar, ma'naviy va moddiy yaxlitlik, o'zaro qo'llab-quvvatlash, bolalarni tarbiyalash, umumiy uy xo'jaligini yuritish, shuningdek, nikoh yoki qarindoshlikka asoslangan shaxslarning birlashmasi sifatida oilaning to'laqonli faoliyatiga, shu bilan birgalikda voyaga yetmaganlarning to'liq jismoniy, aqliy, ruhiy, axloqiy va ma'naviy rivojlanishidagi manfaatlarini qarshi qaratilgan ijtimoiy xavfli tajovuzlar tushunilishini bayon etgan[22, B.96-98].

Demak, oila va yoshlarga qarshi jinoyatlar ijtimoiy xavfliligining asosiy xususiyatlaridan biri mazkur turdagi qilmishlar – tajovuz obyektining jamiyatdagi eng asosiy institutlari bo'lgan oila va yoshlarga qarshi qaratilganligi bilan izohlanishini e'tirof etgan holda ushbu atamaga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

**“oila va yoshlarga qarshi jinoyatlar** – bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunchiligida mustahkamlangan oilaviy munosabatlar hamda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishiga olib keladigan, voyaga yetmagan shaxslarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga tajovuz qiladigan, shaxs, oila va jamiyat o'rtasida sog'lom munosabatlarning buzilishiga sabab bo'ladigan Jinoyat kodeksiga muvofiq jinoyat deb topilgan ijtimoiy xavfli qilmishlardir”.

Oila va yoshlarga qarshi jinoyatlar JK Maxsus qismi “Shaxsga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan birinchi bo'limning “Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar” deb nomlangan 5-bobidan o'rin olgan. Bunda ushbu bobda oila va yoshlarga qarshi quyidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan: voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy

ta'minlashdan bo'yin tovlash (122-modda); ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tovlash (123-modda); bolani almashtirib qo'yish (124-modda); farzandlikka olish sirini oshkor qilish (125-modda); nikoh yoshi to'g'risidagi qonunchilikni buzish (125<sup>1</sup>-modda); ko'p xotinli bo'lish (126-modda); voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish (127-modda); tilanchilik qilish (127<sup>1</sup>-modda); o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish (128-modda); o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxs bilan moddiy qimmatliklar berish yoxud mulkiy manfaatdor etish orqali jinsiy aloqa qilish (128<sup>1</sup>-modda); o'n olti yoshga to'lmagan shaxsga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish (129-modda).

Ushbu moddalarning nomlaridan hamda ularning matni va mazmunidan kelib chiqib aytish mumkin, ushbu moddalarda oila va voyaga yetmagan shaxslar bilan bog'liq munosabatlar alohida obyekt sifatida tanlangan. Ya'ni, bobning nomi "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" bo'lsa-da, unda barcha yoshlar emas, balki 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarning, boshqacha aytganda, voyaga yetmagan shaxslarning manfaatlarini aks etgan.

Ushbu masalada ayrim xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, ularning aksariyatida "oila va voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar" bobi mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Qozog'iston JK[23] Maxsus qismi 2-bobi "Oila va voyaga yetmaganlarga qarshi jinoiy huquqbuzarliklar", Rossiya Federasiyasi JK[24] Maxsus qismi 20-bob "Oila va voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlar", Belarus Respublikasi JK[25] Maxsus qismi 21-bobi "Oilaviy munosabatlar va voyaga yetmaganlarning manfaatlariga qarshi jinoyatlar" deb nomlangan.

**Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, JK Maxsus qismi 5-bobi nomlanishidagi "yoshlarga" degan so'zni "voyaga yetmaganlarga" degan so'zlar bilan o'zgartirish maqsadga muvofiq.**

O'z navbatida, oilaga va voyaga yetmaganlarga qarshi jinoyatlarni shartli ravishda quyidagi ikkita guruhga ajratish mumkin:

1) voyaga yetmaganlarning normal axloqiy, ruhiy, aqliy, jismoniy rivojlanishiga qarshi jinoyatlar;

2) jamiyatda shakllangan oilaviy munosabatlarga qarshi jinoyatlar.

Ayrim tadqiqotchilar, jumladan, Yu.Ye.Pudovochkin bobning nomidan "oila" so'zini olib tashlash zarurligini ta'kidlab, bobni "Voyaga yetmaganlarning rivojlanishiga qarshi jinoyatlar" deb nomlashni taklif qiladi[26]. Ammo biz ushbu fikrga qo'shilmaymiz. Chunki, ushbu bobda nafaqat voyaga yetmaganlar bilan bog'liq munosabatlar, balki oilaviy munosabatlarga daxldor normalar mavjud. Shu sababdan, biz JKning ushbu bobida nazarda tutilgan barcha jinoyatlar, asosan, voyaga yetmaganning manfaatlarini ham, ularning obyektini bo'lgan oila manfaatlarini ham buzadi[27], degan fikrlarni qo'llab quvvatlaymiz.

Shuningdek, boshqa tadqiqotchilar, shu jumladan, S.V. Borodin ushbu bob "Shaxsga qarshi jinoyatlar" bo'limida joylashganligini, bu bo'limda qayd etilgan jinoyatlarning umumiy obyektini "shaxs" bo'lishi zarurligi, bo'lim nomidan kelib chiqqan holda, u muayyan ijtimoiy institutlarga, ya'ni oilaga tajovuzlarni o'z ichiga olmasligini qayd etishgan[28, B.34]. Bundan tashqari, V.F. Belovning fikricha, oila hamda undagi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi mavjud munosabatlarga tajovuz qilish obyektini bo'lgan jinoyatlar mohiyatan jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar hisoblanadi[29, B.52]. Qolaversa, boshqa olimlar tomonidan bunday jamoat munosabatlarini himoya qilishni ustuvor obyekt sifatida tan olish va uni JKning 2-moddasidagi vazifalar ro'yxatida aks ettirish zarurligi to'g'risida fikrlar[29, B.52] ham bildirilgan. Biz ushbu fikrlarga qo'shilmaymiz. Chunki, JKning 2-moddasida JKning vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat ekanligi mustahkamlangan. Oilaviy munosabatlar, tom ma'noda, kichik guruhdagi shaxslar orasidagi munosabatlar hisoblanadi. Ya'ni, oilaga qarshi jinoyatlarda jinoyatchi oilaviy munosabat orqali oxir oqibat shaxs bilan bog'liq munosabatlarga zarar yetkazadi, uning huquq va qonuniy manfaatlarini toptalishiga erishadi. Bu borada JK Konstitutsiyaga muvofiq, shaxs, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishning asosiy obyektini sifatida tan oladi, degan olimlarning fikrlarini[30, B.112] ma'qullaymiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, boshqa nuqtayi nazardan qaracak ham, oila jamiyat va davlatning eng kichik bo‘g‘ini degan aksiomadani kelib chiqib, JKning 2-moddasida aks etgan “jamiyat va davlat manfaatlarini” ham ushbu masalani qamrab oladi degan xulosa chiqarish mumkin. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, biz JKning 2-moddasida nazarda tutilgan umumiy obyektlar ro‘yxati oilaviy munosabatlarni ham o‘zida qamrab oladi hamda “Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar” bobi JK Maxsus qismining “Shaxsga qarshi jinoyatlar” deb nomlangan birinchi bo‘limida to‘g‘ri tizimlashtirilgan degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlil asosida JK Maxsus qismi 5-bobining nomlanishi “Oilaviy munosabatlar, voyaga yetmaganlar va axloqqa qarshi jinoyatlar” deb o‘zgartirish taklif etiladi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Ахмяров Р.Ш. К вопросу о понятии преступлений против семьи и несовершеннолетних в России. // Проблемы развития современного общества: Сборник научных статей 8-й Всероссийской национальной научно-практической конференции 19-20 января 2023 года. МЛ-72. Т.2. – М., 2023. – С. 157. (Akhmyarov R.Sh. On the question of the concept of crimes against family and minors in Russia. // Problems of the development of modern society: Collection of scientific articles of the 8th All-Russian National Scientific and Practical Conference, January 19-20, 2023. ML-72. Vol.2. - M., 2023. - P. 157.)
2. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ–139-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/1297315](http://www.lex.uz/docs/1297315) (of the Republic of Uzbekistan dated January 7, 2008 "On Guarantees of the Rights of the Child." Law No. ЗРУ-139. // [www.lex.uz/docs/1297315](http://www.lex.uz/docs/1297315))
3. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ЎРҚ-406-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/3026246](http://www.lex.uz/docs/3026246) (Law of the Republic of Uzbekistan dated September 14, 2016 "On State Youth Policy." Law No. ЗРУ-406. // [www.lex.uz/docs/3026246](http://www.lex.uz/docs/3026246))
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман)нинг фаолияти тўғрисида ҳисоботи. // [www.ombudsman.uz/uz/publication/1703/](http://www.ombudsman.uz/uz/publication/1703/); [www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/](http://www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/) (Report on the activities of the Authorized Representative of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan for Human Rights (Ombudsman). // [www.ombudsman.uz/ru/publication/1703/](http://www.ombudsman.uz/ru/publication/1703/); [www.gazeta.uz/ru/2021/04/30/mehr/](http://www.gazeta.uz/ru/2021/04/30/mehr/))
5. [www.stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6548-demografiya](http://www.stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6548-demografiya) ([www.stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6548-demography](http://www.stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6548-demography).)
6. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Таълим тўғрисида”ги 464-I-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/16188](http://www.lex.uz/docs/16188) (Law of the Republic of Uzbekistan dated August 29, 1997 No. 464-I “On Education”. // [www.lex.uz/docs/16188](http://www.lex.uz/docs/16188))
7. Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 29 августдаги “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида”ги 463-I-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/196944](http://www.lex.uz/docs/196944). (Law of the Republic of Uzbekistan dated August 29, 1997 No. 463-I "On the National Program for Personnel Training." // [www.lex.uz/docs/196944](http://www.lex.uz/docs/196944).)
8. Ўзбекистон Республикасининг 2008 йил 7 январдаги “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги ЎРҚ-139-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/1297315](http://www.lex.uz/docs/1297315) (Law of the Republic of Uzbekistan dated January 7, 2008 “On Guarantees of the Rights of the Child”. Law No. ЗРУ-139. // [www.lex.uz/docs/1297315](http://www.lex.uz/docs/1297315))
9. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги ЎРҚ-263-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/1685726](http://www.lex.uz/docs/1685726) (In accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan dated September 29, 2010 "On Neglect Among Minors" Law of the Republic of Uzbekistan No. ЗРУ-263 "On Criminal Procedure and Crime Prevention." // [www.lex.uz/docs/1685726](http://www.lex.uz/docs/1685726))

10. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 14 сентябрдаги “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги ЎРҚ-406-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/3026246](http://www.lex.uz/docs/3026246) (Law of the Republic of Uzbekistan dated September 14, 2016 "On State Youth Policy." Law No. ЗРУ-406. // [www.lex.uz/docs/3026246](http://www.lex.uz/docs/3026246))
11. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Болаларни уларнинг соғлиғига зарар етказувчи ахборотдан химоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-444-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/3333797](http://www.lex.uz/docs/3333797) (Law of the Republic of Uzbekistan dated September 8, 2017 No. ZRU-444 "On the Protection of Children from Information Harmful to Their Health." // [www.lex.uz/docs/3333797](http://www.lex.uz/docs/3333797))
12. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни. // [www.lex.uz/docs/5013007](http://www.lex.uz/docs/5013007) (Law of the Republic of Uzbekistan dated September 23, 2020 No. ЗРУ-637 "On Education." // [www.lex.uz/docs/5013007](http://www.lex.uz/docs/5013007))
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. // [www.lex.uz/docs/3107036](http://www.lex.uz/docs/3107036) (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. UP-4947 "On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan." // [www.lex.uz/docs/3107036](http://www.lex.uz/docs/3107036))
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. // [www.lex.uz/docs/3107036](http://www.lex.uz/docs/3107036).( Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. UP-4947 "On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan." // [www.lex.uz/docs/3107036](http://www.lex.uz/docs/3107036))
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. // [www.lex.uz/docs/5841063](http://www.lex.uz/docs/5841063) (In accordance with the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On Measures for Further Improvement of the Activities of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan for 2022-2026." Decree of the President of the Republic of Uzbekistan UP-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan." // [www.lex.uz/docs/5841063](http://www.lex.uz/docs/5841063))
16. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. // [www.lex.uz/docs/97664](http://www.lex.uz/docs/97664). (Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Responsibility. // [www.lex.uz/docs/97664](http://www.lex.uz/docs/97664))
17. Юлдашева Г., Эсанова З.Н., Эгамбердиев А.У., Тухташева У.А. Права ребенка: Учебник. – Ташкент: ТГЮУ, 2017. – Б. 28. (Yuldasheva G., Esanova Z.N., Egamberdiyev A.U., Tuxtasheva U.A. Children's Rights: Textbook. - Тошкент, 2018 йил. - P. 28.)
18. Ряховская А.К. Преступления против семьи (уголовно-правовой аспект). // Наука и образование: проблемы и стратегии развития. – 2018. – № 1 (4). – С. 100.( Ryakhovskaya A.K. Crimes against the family (criminal-legal aspect). // Science and Education: Problems and Development Strategies. - 2018. - No. 1 (4). - P. 100.)
19. Иброҳимова З.С. Оилага қарши жиноятларнинг жиноят-ҳуқуқий ва криминологик жиҳатлари. Юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2022. – Б. 30.(Ibrohimova Z.S. Criminal-Legal and Criminological Aspects of Crimes Against the Family. Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences. - Тошкент, 2022. - P. 30.)
20. Ратников К.А. Общая характеристика и виды преступлений против семьи. // Закон. Право. Государство. – 2022. – № 2 (34). – С. 310.(Ratnikov K.A. General Characteristics and Types of Crimes Against the Family. // Law. Law. State. - 2022. - No. 2 (34). - P. 310.)
21. Жиноят ҳуқуқи. Махсус қисм: Дарслик. / Р.Қабуллов, А.Отажонов ва бошқ. / Масъул муҳаррир: Ш.Икрамов. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2014. – Б. 123.( Criminal Law. Special Part: Textbook. / R.Kabulov, A.Otajonov and others. / Editor-in-Chief: Sh.Ikramov. Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014. - P. 123.)

- 22.** Царегородцева А.И., Сирик М.С. Уголовно-правовая характеристика преступлений против семьи и несовершеннолетних. // *Фундаментальные и прикладные направления модернизации современного общества: экономические, социальные, философские, политические, правовые, общенаучные аспекты. Материалы международной научно-практической конференции в 4-х частях.* – М., 2015. – С. 96-98. (Saregorodtseva A.I., Sirik M.S. Criminal-Legal Characteristics of Crimes Against the Family and minors. // *Fundamental and Applied Directions of Modernization of Modern Society: Economic, Social, Philosophical, Political, Legal, General Scientific Aspects. Materials of the International Scientific and Practical Conference in 4 parts.* - M., 2015. - B. 96-98.)
- 23.** Уголовный кодекс Республики Казахстан от 3 июля 2014 года №226-VЗРК. // [www.adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226](http://www.adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226) (Criminal Code of the Republic of Kazakhstan dated July 3, 2014 No. 226-VZRK. // [www.adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226](http://www.adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226))
- 24.** Уголовный кодекс Российской Федерации от 13 июня 1996 года № 63-ФЗ. // [www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/) (Criminal Code of the Russian Federation of June 13, 1996 No. 63-FZ. // [www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/))
- 25.** Уголовный Кодекс Республики Беларусь от 9 июля 1999 года № 275-З. // [www.kodeksy-by.com/ugolovnyj\\_kodeks\\_rb.htm](http://www.kodeksy-by.com/ugolovnyj_kodeks_rb.htm) (Criminal Code of the Republic of Belarus of July 9, 1999 No. 275-Z. // [www.kodeksy-by.com/ugolovnyj\\_kodeks\\_rb.htm](http://www.kodeksy-by.com/ugolovnyj_kodeks_rb.htm))
- 26.** Пудовочкин Ю.Е. Ответственность за преступления против несовершеннолетних по российскому уголовному праву. – СПб., 2002. – С. 69. (Pudovochkin Yu.E. Responsibility for crimes against minors under Russian criminal law. - Тошкент, 2020. - P. 69.)
- 27.** Наумов А.В. Российское уголовное право. Курс лекций: в 3 т. Т.2. Особенная часть (главы 1-10). / 4е изд. перераб. и доп. – М., 2007. – С. 156. (Naumov A.V. Russian Criminal Law. Course of lectures: in 3 vols. Special Part (Chapters 1-10). / 4th ed. revised and supplemented. - M., 2007. - P. 156.)
- 28.** Энциклопедия уголовного права. Т.17. Преступления против семьи и несовершеннолетних. Издание профессора Малинина – СПб.: ГКА, СПб., 2011. – С. 34 (Encyclopedia of Criminal Law. Vol.17. Crimes against families and minors. Published by Professor Malinin - SPb.: GKA, SPb., 2011. - P. 34.)
- 29.** Белов В.Ф. Преступления против семьи и несовершеннолетних в аспектах de lege lata и de lege ferenda. – М., РУСАКИ, 2002. – С. 52. (Belov V.F. Crimes against family and minors in the aspects of lega lata and lega ferenda. Moscow: RUSAKI, 2002. - P. 52.)
- 30.** Донская (Кавелина) О.Г. Преступления против семьи и несовершеннолетних: взгляд современника. // *Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И.Вернадского Юридические науки.* – 2021. – Т.7 (73). – № 2. – С. 112. (Donskaya (Kavelina) O.G. Crimes against the family and minors: a contemporary's perspective. // *Scientific notes of the V.I. Vernadsky Crimean Federal University.* - 2021. - Vol.7 (73). - No 2. - P. 11.)

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000